

Behzod MAXMUDOV,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va

texnologiya universiteti dotsenti, t.f.n.,

E-mail: mahmudov.behzod@mail.ru

Tel: 94 254 94 64

O'zbekiston fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodim tarix fanlar nomzodi, dotsent Ochilova G taqrizi asosida

IN PARTICULAR THE ROLE OF TRIBAL RELATIONS IN THE KARAKHANI STATE

Annotation

This article analyzes the role of Turkic tribes in the socio-political history of the Karakhanid state. In this case, we are talking about the Yagmo and Qarluq tribes, which are of great importance in the political life of the state. It was also noted that the importance of mutual alliance and organization of many other Turkic tribes such as Chigil, Khalach, Arghu, Tokhsi, Jumul, Kay, Yamak, Yabaqu, Kangli, Az, Uz, along with the Yagmo and Karluq tribes, was incomparable in the power of the state.

Key words: Karakhanids, Yettisuv, Ila, East Turkestan, Yagmo, Toguz-Oguz, Qarluq, Chigil, Khalach, Argu, Tokhsi, Jumul, Kay, Yamak, Yabaqu, Kang li, az, uz, Mahmud Kashgari, Yusuf Khos Hajib, Eastern and Western Khanate.

В ЧАСТНОСТИ, РОЛЬ ПЛЕМЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В ГОСУДАРСТВЕ КАРАХАНИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль тюркских племен в общественно-политической истории Караханидского государства. В данном случае речь идет о племенах ягмо и карлук, имеющих большое значение в политической жизни государства. Было также отмечено, что важность взаимного союза и организации многих других тюркских племен, таких как Чигил, Халач, Аргу, Тохси, Джумул, Кай, Ямак, Ябаку, Кангли, Аз, Уз, а также племенами Ягмо и Карлук, была несравнимой по могуществу государства.

Ключевые слова: Караханиды, Йеттисув, Ила, Восточный Туркестан, Ягмо, Тогуз-Огуз, Карлук, Чигил, Халач, Аргу, Тохси, Джумул, Кей, Ямак, Ябаку, Канг ли, аз, уз, Махмуд Кашгари, Юсуф Хос Хаджиб, Восточный и Западное ханство.

QORAXONIYLAR DAVLATIDA QABILAVIY MUNOSABATLARNING O'RNI XUSUSIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlatini ijtimoiy-siyosiy tarixida uning tarkibidagi turkiy qabilalarning o'rni tahlil etilgan. Bunda davlatni siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan, yirik turkiy qabilalardan yag'mo va qarluq qabilasi xususida so'z ketadi. Shuningdek, davlatni kuch-qudratida, yag'mo va qarluq qabilasi bilan birga chig'il, xalach, arg'u, to'xsi, jumul, qay, yamak, yabaqu, qang'li, az, uz kabi boshqa ko'plab turkiy qabilalarning o'zaro ittifoqi-uyushuvining ahamiyati beqiyos bo'lganligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar, Yettisuv, Ila, Sharqiy Turkiston, yag'mo, to'g'uz-o'g'uz, qarluq, chig'il, xalach, arg'u, to'xsi, jumul, qay, yamak, yabaqu, qang'li, az, uz, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Sharqiy va G'arbiy hoqonlik.

Kirish. Qoraxoniylar davlati haqida ko'plab, ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, ushbu davlat tarixiga doir ayrim masalalar hanzuzgacha o'z yechimini kutib qolmoqda. Ayniqsa, davlatni tashkil topgan sanasi, uning etnik asosi, davlatning ichki va tashqi siyosatida qabilaviy munosabatlar borasida tadqiqotchi olimlar o'rtasida qarama-qarshi fikrlar mavjud. Biz ushbu maqolada asosan shu bahsli jihatlariga e'tiborni qaratmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, Qoraxoniylar davlati xususida o'z davrida ham ko'plab manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Ularning ichida turkiy manbaa sifatida Maxmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojibning asarlari juda ahamiyatlidir [1. B.499. 427.466.964]. Qoraxoniylar davlat tarixini mazkur manbalar va so'nggi tadqiqotlar asosida o'rganib, ushbu davlatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini yaxlit holda tadqiq etgan O. Korayevning asarini bu borada alohida bosqich sifatida e'tirof etish mumkin [2. S.301]. Qoraxoniylar davlatini "Qarluq davlati", deb nomlagan va davlat tarixida asosan qarluq qabilasining o'rni yuksak bo'lganligini qayd etgan K.SH.Shoniyozovning tadqiqot ishlari ham e'tiborlidir [3. B.192]. Qoraxoniylar davlatini xitoy manbalari asosida o'rgangan A.Xodjayev, D. Turdiyeva kabi olimlarning tadqiqotlari esa mazkur davlat tarixini yangi manbalar asosida tadqiq etish imkoniyatini yuzaga keltirdi [4. B.150].

Tadqiqot metodologiyasi. Qoraxoniylar davlatini qaysi etnik asosda tashkil etilganligi haqida tadqiqotchilarning fikrlari turlicha bo'lib, ko'pgina tarixiy asarlarda mazkur davlatni qaysi turkiy qabila tashkil etganlik masalasi ancha ziddiyatli va bahstalabdir. Biz qo'yida ushbu davlat tarkibidagi asosiy qabilalardan yag'mo va qarluq qabilalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Tahlil va natijalar. Yag'molarni ayrim manbalarda to'g'uz, ya'ni uyg'urlar tarkibida bo'lganligi ta'kidlangan[5. S.45]. Lekin yag'molarning kelib chiqishini uyg'urlardan deyishga asoslar yetarli emas[6. B.346]. Chunki to'g'uz qabilasining o'zi to'liq nomlanishi to'g'uz-o'g'uz deyiladi. Bunday nomlanish esa qabila nomini emas, balki jamlovchilik ma'nosiga ega bo'lgan etnik nom, ya'ni bir ittifoqqa birlashgan qabilalarni anglatgan [7. B.70]. Demak, to'g'uz-o'g'uz – bu to'qqiz qabilaning o'zaro ittifoqi bo'lib, tarixda ular Uyg'ur hoqonligi nomi bilan shuhrat qozongan.

Yag'molarni uyg'urlar bilan uyg'un holda anglashilishi ham bizningcha VIII asrning o'rtalaridan to 840 yilga qadar mavjud bo'lgan Uyg'ur hoqonligi tarixi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki yag'molar shu vaqt ichida mazkur davlat tarkibida faoliyat yuritib kelishgan.

Qoraxoniylar davlati vujudga kelgan hududlarda qarluq, chig'il, xalach, arg'u, to'xsi va ularga kelib qo'shilgan yag'mo qabilalari ittifoqchilik asosi-da yashashgan. Davlat ham aynan shu qabilalarni o'zaro birikmasi asosida tashkil topgan. Biz yag'molarni bu hududlarga keyinroq kelib joylashgan, demoqdami. Ehtimol, ularning ayrim guruhlar qadimdan shu o'lkalarda yashab kelgandir. Lekin ularning asosiy qismi IX asr o'rtalaridan kirib kelishgan.

Bunga qadar ular yuqorida qayd etilganidek, Uyg'ur hoqonligi tarkibida bo'lishgan. Uyg'ur hoqonligi 840 yilda qirg'izlar tomonidan tor-mor etilgach, inqirozga uchrab, parchalanib ketadi. Ularning tarkibidagi qabilalar esa guruh-guruh bo'lib, ajralib turli hududlarga tarqalib ketgan [8. B.459-462]. Jumladan, yag'mo qabilasi ham qarluqlarga tegishli bo'lgan hududlarga ya'ni Farg'ona vodiysining shimoliy tog'li hududlari va Qoshg'ar yaqiniga kelib o'rnamadilar. Bu esa o'z navbatida yag'molarni bundan keyingi hayoti bevosita, yangi turkiy Qoraxoniylar davlati bilan bog'lanib ketishini anglatadi.

Yag'molarni X-XI asrga taalluqli tarixi xususida o'sha davrda yaratilgan manbalarda ko'plab ma'lumotlar bor. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy o'z asarida yag'molar xususida ko'p marotaba to'xtalib o'tib, ularni o'sha davrdagi eng nufuzli qabilalardan biri sifatida ta'riflab o'tgan [9. B.244, 348,378]. «Devon»da yag'molarni urf-odatlari va til xususiyatlaridan tashqari, ularni harbiy jihatdan jangovar qabila ekanligi ta'kidlanadi [10. B. 460].

Yusuf Xos Hojib ham o'zining «Qutadg'u bilig» (Saodatnoma) asarida yag'mo beglari haqida bir necha bor to'xtalib o'tib, qo'yidagilarni yozgan: «Yag'-mo begi nima deydi, yaxshilab eshit, hamma ishlarga farosati yetgan (kishi): elchiga ishonilsa maktub nega kerak, ishonch topilgach hozirlik nega kerak...» [11. B. 735].

Ushbu satrlarning mazmunidan ko'rinib turibdiki, yag'mo qabilasi va uning begi haqidagi bu ijobiy fikrlar o'sha davrda hoqonlikda yag'molarni o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, Yusuf Xos Hojib Qoraxoniylar davlatida hoqon saroyida xizmat qilgan. Demak, muallif o'zi guvoh bo'lgan tarixiy-voqea hodisalar ta'sirida asarni yozgan. Yusuf Xos Hojib o'zining bu asarini XI asrda yozganligini e'tiborga olsak, bu davrga kelib Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida va davlat boshqaruvida yag'mo qabilasining mavqe'i o'sganligini tushunishimiz mumkin. Chunki yag'mo begi bir necha bor oqil kishi sifatida ta'riflangan bu asardagi ma'lumotlar [12. B. 305], mazkur qabila va uning sardorini davlat boshqaruvida ma'lum bir ta'sir kuchiga ega bo'lganligini anglatadi. Shuning uchun ham hoqonlar o'z nomlarida ulug'vor unvon sifatida yag'molarni totemi "bug'ra" atamasini qo'llashgan [13. B. 158-165]. Lekin shu o'rinda Yusuf Xos Hojibni Qoraxoniylar davlati yuzaga kelgan davrdan ancha keyingi sanada yashab, ijod qilganligiga ham e'tiborni qaratishimiz kerak.

Balki mazkur muallifning davriga kelib, hoqonlik tarkibidagi qabilalarning o'rni va roli u yoki bu darajada o'zgargandir. Umuman olganda, hoqon saroyida nufuzli lavozimda xizmat qilgan Yusuf Xos Hojib axborotlari o'zining tarixiy asoslariga ega, deb o'ylaymiz. Biz asarda yag'molarni qo'shni qabilalar ichida eng jangovari hisoblanganligini hisobga olsak, yuqoridagi ma'lumotlarda ma'lum bir asoslar borligini anglaymiz. Shubhasiz, o'rta asrlarda harbiy jangovar kuchlar har bir davlatning asosiy tayanchi hisoblangan. Ularsiz hukmdorlar o'z siyosatlarini amalga oshirishlari mumkin emas edi. Chunki davlatning qudrati ham birinchi navbatda uning iqtisodiy ahvoriga bog'liq bo'lsa, ikkinchisi uning harbiy kuchlari qay darajada bo'lishi bilan belgilangan.

Demak, yag'mo qabilasining Qoraxoniylar davlati hayotida tutgan o'rni va ahamiyati katta bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, Qoraxoniylar davlatini tashkil topishida yag'mo qabilasi sabab bo'lmagan. Chunki, yag'molar bu hududlarga ya'ni Farg'ona vodiysining shimoliy tog'li hududlari va Qoshg'ar yaqiniga kelib o'rtnashgunlariga qadar, Qoraxoniylar davlatining asosiy poydevori yaratilgan edi (766-840). Qolaversa, davlatning shakllanishi va uning etnik asosi, bu juda murakkab, o'ziga xos jarayonlarning mahsuli bo'lib, biz bu haqda o'z fikr-mulohazalarimizni manbalarga asoslangan holda bildirib o'tsak.

Ma'lumki, Qoraxoniylar davlatining hududi Yettisuv, Isfijob viloyati, Shosh vohasi, Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismi va Farg'ona vodiysidan iborat edi. Bu hududlarda esa qadimdan turkiy qabilalar istiqomat qilishgan. Jumladan, VI-VIII asrlarda bu vohalarda dulu, nushibi, az, uz va boshqa qabilalar yashagan: VIII-X asrlarda esa o'g'uz, qarluq, chig'il, xalach, yag'mo qabilalari: X-XI asrlarda qipchoqlar kelib joylashgan edi [14. B. 37].

Aynan shu qabilalarning o'zaro ittifoqi-uyushmasidan Qoraxoniylar davlati vujudga kelgan edi. Albatta, Qoraxoniylar davlatiga qadar ham mazkur hududlarda yashovchi juda ko'p turkiy qabilalar o'zaro ittifoqi-uyushmalari asosida bir necha bor o'z davlatlarini tuzgan edilar. Turkiy hoqonligi va uning parchalari asosida yuzaga kelgan Turkash davlati bunga misol bo'la oladi. Qoraxoniylar davlati ham ana shunday jarayonlar asosida yuzaga kelgan bo'lib, avvalgi hoqonlik tarkibida bo'lgan va tarqalib ketgan qabilalarni yangi ittifoqqa birlashtirib, turkiy davlatchilik tizimini izchillik bilan davom ettirgan. Demochimizki, Qoraxoniylar davlati qabilalarni o'zaro ittifoqi-uyushmasidan iborat ekan, undagi davlatchilik an'analari, uning tarkibidagi turkiy qabilalar uchun yangilik emas edi. Ushbu davlat avvalgi turkiy davlatlarning uzviy davomi bo'lib, davlatchilik sohasidagi boy tajribalarni tadrjijy taraqqiyotini ta'minlagan.

Endi bevosita Qoraxoniylar davlatining tarkibidagi eng yirik qabilalardan biri bu – qarluq qabilasi xususiga kelsak. Aynan shu qarluq qabilalar ittifoqining negizida yirik Qoraxoniylar davlati tashkil topgan edi. Qarluq qabilasi haqida Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida «ular turklar-ning bir turi bo'lib, o'g'uzlardan boshqadir», deb ma'lumot beradi [15.B. 498]. «Devon»da keltirilgan ma'lumotlar qarluqlarni yetakchi qabila tariqasida emas, aksincha ularni boshqa qabilalarga tobe' qabila, sifatida ko'rsatadi [16.B. 498].

Ehtimol, bu davrga kelib, ya'ni Mahmud Koshg'ariy o'z asarini yozgan vaqtda (XI asr) qarluqlar o'zlarining yetakchi qabila sifatidagi ilgari mavqe'larini yo'qotishgandir. Qarluq qabilasi va qarluqlar xususida X asrda yaratilgan asarlar nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Muallifi noma'lum «Hudud al-olam» nomli mashhur asarda qarluqlar egallab turgan hudud sharqda Tibet, g'arbda g'uzlar, shimol tomonda chig'il va to'g'uz-o'g'uzlar, janubda esa Mova-rounnahr o'lkalari bilan chegaralangan qayd etilgan [17.S. 17].

Arab sayyohi Abu Dulafning Xitoyga borish uchun qarluqlar o'lkasi bo'ylab 25 kun yo'l bosganligidan [18.S. 30-35] ham anglash mumkinki, qarluqlar bu davrda juda katta hududlarda hukmronlik qilishgan. Ma'lumki, qarluqlar dastlab Turk hoqonligiga tobe bo'lishgan. Keyinchalik, tinimsiz ravishda o'z mustaqilliklari uchun kurash olib bo-rishlari natijasida qarluq qabila ittifoqi buzilib, bir necha guruhlariga bo'linib ketishgan. K.SH. Shoniyo-zov ana shu jarayonda yuzaga kelgan yangi etno-hududiy qarluq guruhlarini joylashgan o'lkalarga qarab to'rt guruhga bo'lib ko'rsatadi [19.B. 340].

Bu etnik guruhlar ichida eng katta kuchga va nufuzga ega bo'lgani Ila daryosining shimolida joylashgan qaruqlar edi.. Yuqorida keltirilgan bu ma'lumotlarga suyangan holda aytish mumkinki «qarluq» nomi bu – alohida bir qabilaning nomi emas, balki bir necha qabilalarning birlashmasiga umumiy nom sifatida qo'llanilgan nomdir. Chunki agarda biz tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganib e'tibor beradigan bo'lsak, ilk o'rta asrlarda juda ko'plab turkiy qabilalar mavjud bo'lgan. Lekin ular haqida so'z ketganda qarluq, o'g'uz, uyg'ur, qipchoq qabilalari yirik qabilalar ittifoqi sifatida alohida tilga olinib, ularga kengroq ta'rif berilgan [20.B. 286].

Demak, qarluqlar avval ham qayd etganimizdek 766 yilda turkashlar ustidan g'alaba qozongach, Yettisuv hududida o'zlarining yirik qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan davlatlarini tashkil etishgan. Qarluq qabilalar ittifoqi tuzilgan sana (766 yil) Qoraxoniylar davlatining poydevori o'rnatilgan vaqtni o'zida ifoda etadi. Shunday ekan bu davrdagi qarluq qabilalar ittifoqi va unga vaqt o'tishi mobaynida qo'shilib borgan turkiy qabilalar, turli etnik guruhlar shu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi hisoblanadi. Bu jarayonlar esa shu bilan izohlanadiki, qarluqlar Yettisuvni egallab, o'z hududlarini kengaytirib, qo'shni qabilalarni tobe etishgach, ilgari qabila sardori ya'ni jabg'uni vakolat doirasi ham kengayadi. Avvalgi davrda jabg'u faqat bir qabila ittifoqini boshqarib kelgan bo'lsa, endilikda u o'ziga qarashli bo'lgan hududlarda yashovchi bir qancha boshqa qabilalar va turg'un aholi jamoalarini ham boshqargan.

Ko‘rinib turibdiki, qarluq qabilalar ittifoqi IX asrga kelib siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarkibiy jihatdan birmuncha o‘zgarishlarga uchragan. Aniqlik, bu davrga kelib qarluqlar va ularga tegishli hududlarda yashovchi turkiy qabilalar hayotida keskin burilish bo‘lgan.

Ularning yagona va yirik davlat tuzishlari uchun imkoniyatlar va shart-sharoitlar pishib yetilgan edi. Natijada, juda ko‘p qabilalarni bir ittifoqqa uyushishi bilan, yangi bir yirik davlatga asos solindi. O‘z navbatida bu davlatni endi jabg‘u emas, balki chinakam hukmdor «hoqon» boshqara boshlagan. Hoqon esa ilgari jabg‘ulardan, ya‘ni qarluqlardan chiqqan bo‘lishi mumkin. Hoqon sulolasi qarluq qabilasidan chiqqan ekan, mazkur davlatni yuzaga kelishida aynan shu qabilaning hissasi katta bo‘lganligi shubhasizdir. Biroq bu Qoraxoniylar davlatini yuzaga kelishida faqat qarluq qabilasi ishtirok etgan, degan ma‘noni anglatmaydi. Balki bu yirik davlat ko‘pgina turkiy qabilalarni birikib, uyushib borishi natijasida hosil bo‘lgan. Umuman olganda, Qoraxoniylar davlati tarkibida yuqorida nomi zikr etilgan qabilalardan tashqari chig‘il, xalach, arg‘u, to‘xsi, jumul, qay, yamak, yabaqu, qang‘li, az, uz kabi ko‘plab boshqa qabilalar ham mavjud bo‘lgan.

Davlatni tashkil etishda, turkiy qabilalar asosiy negiz bo‘lgan bo‘lsa, uning keyingi davr mobaynidagi taraqqiyoti Movarounnahrning o‘troq mahalliy aholisiga ham har jihatdan bog‘liq bo‘lib kelgan. Qoraxoniylar davlati tarkibida faqat ko‘chmanchi yoki yarim ko‘chmanchi turkiy qabilalar emas, balki o‘troq xalq vakillari ham ko‘pchilikni tashkil etgan. Ayniqsa, Qoraxoniylar davlati 1040 yilda G‘arbiy va Sharqiy hoqonlikga bo‘linib ketgach, G‘arbiy hoqonlik Movarounnahrda iborat bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Qoraxoniylar davlatida qabilalarning o‘rni va roli turlicha bo‘lib, ularning davlatni siyosiy boshqaruvidagi ishtiroki ham shunga ma‘lum ma‘noda bog‘liq bo‘lgan. Tarixiy jarayonlar esa bir xil kechmagan, albatta. Dastlabki davrda nufuzli kuchga ega bo‘lgan qabilalar, keyingi davrlarga kelib, davlat boshqaruvida o‘zini ilgari ustuvor mavqei yo‘qotgan yoki davlat tarkibidagi boshqa yirik qabilalar bilan birlashib, uyg‘un ko‘rinishga kelib qolgan. Bu davrdagi davlatlarning yashovchanligi va harbiy qudrati, uning tarkibidagi aholining soni va ularning uyushganlik darajasiga har jihatdan bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun ham hoqonlar ulug‘vor unvon sifatida shu qabilalarning totemlari (bug‘raxon, arslonxon)ni o‘z nomlariga qo‘shib aytishni odat qilishgan. Aytmoqchimizki, Qoraxoniylar davlati o‘zining uzoq tarixiy davriga ega ekan (766-1212), uning tarixini xolisona o‘rganish uchun davlat tarkibidagi barcha qabilalarga alohida e‘tibor berish zarur, deb o‘ylaymiz. Chunki biz o‘rganayotgan bu hoqonlik qabilalarning o‘zaro hududiy uyushmasi sifatida barpo etilgan. Shuning uchun uning tarkibidagi har qaysi qabila katta-kichikligidan qat‘iy nazar davlat faoliyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

ADABIYOTLAR

1. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. - Б. 499; 1961. 2-жилд.- Б. 427; 1963. 3-жилд. – Б.466. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 964.
2. Кораяев О.К. История Караханидского каганата.-Фрунзе: Илим, 1983.- С. 301.
3. Шониёзов К.Ш. Қарлук давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 192.
4. Ходжаев А., Турдиева Д. Қорахонийлар ҳоконлиги тарихи Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида.- Тошкент: Фан зиёси, 2021.-Б.150.
5. Бартольд В.В. Извлечения из Сочинения Гардизи «Зайн ал-Ахбар». Сочинения. Т. VIII. – М.: Наука, 1973. – С. 45.
6. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 346.
7. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 70.
8. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 459-462.
9. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1963. 3-жилд. – Б. 244, 348, 378 ва бошқа бетлар.
10. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1963. 3-жилд. – Б. 460.
11. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 735.
12. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 735.
13. Махмудов Б.Х. Қарлук-қорахонлар давлатида қўлланган “буғра” тотем хусусида // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences — April. 2022 Vol. 02, Issue 04/2. ТОШКЕНТ. — Б. 158-165. <https://oriens.uz/journal/article/arluoraonlar-davlatida--llangan-bura-totemi-ususida>
14. Шониёзов К.Ш. Қарлук давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 37.
15. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 498.
16. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 498.
17. «Худуд ал-алем» - рукопись Туманского с введением указателем В.В.Бартольда. – Л.: Изд. АН СССР, 1930. – С. 17.
18. Григорьев В.В. Об Арабском путешественнике X-го века Абу Долефе и странствовании его по Средней Азии // ЖМНП. – СПб., 1872. -№9. – С. 30-35.
19. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 340.
20. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк / Индекс-луғат. Ғ.А. Абдурахмонов., С.М. Муталибовлар таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 391-397; Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Б. 286.